



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025
1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova Boshqaruv samaradorligini oshirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy asoslari	150
Askar Axrorovich Siddikov, Islomjon Umrzoq o‘g‘li Yovqochov Yashil mehmonxona va restoranlar: ekologik boshqaruv va barqarorlik	154
ИНВЕСТИЦИЯ	
Шохида Ильясовна Артикова, Дилноза Наврузовна Султонова Реальные инвестиции как фактор повышения развития экономики страны	157
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Xurshida Abdumalikovna Karjavova Sug‘urta xizmatlari bozorini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llari	161
Alisher Komilovich Baxadirov O‘zbekistonda lizing oluvchilarni ijara muomalalari hisobining amaldagi holatini barqarorlashtirish yo‘llari	167
Faridun Mustafoyevich Tursunov Tijorat banklarida innovatsion masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishning ahamiyatli jihatlari	172
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Мамаюнус Каршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусова Пардаева, Севара Абдиназаровна Бабаназарова Инсон ресурслари аналитикаси (таҳлили) фанининг вазифаларига оид фикрлар	177
Tolmasjon Namoz o‘g‘li Qurbonov “Yashil iqtisodiyot”ning iqtisodiy samaradorligini baholash tahlili	182
Otabek Olimjonovich Sobirov Boshqaruv hisobida sifat nazoratini tashkil etish va takomillashtirish	190
Бобур Фарходович Боронов, Дилноза Гафуровна Худайназарова Корхоналарда даромад ва харажатлар таснифини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш	192
Sirojiddin Haydarovich Shermamatov Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini tashkil etishning muammo va istiqbollari	200
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Азимжон Фаррухович Мустафоев Нодавлат таълим ташкилотларида моддий харажатлар ҳисобини такомиллаштириш	205
To‘lqin Mardiyev, Azizbek Gafurov Qardosh bo‘lmagan tillarda iqtisodiy idioma va frazeologiyalarning leksik-semantik xususiyatlari	212
Хилола Нематовна Очилова Камбағалликни қисқартиришда олий таълим муассасаларининг ўрни ва аҳамияти	215
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Каршибаевич Пардаев 1. Энг зарур тиббий ўғитлар. 2. Онкологлар энди мени кечиришмайди. бутун дунё топмаган дардимга, биргина мева даво бўлди!!	219

Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistranti

BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN’IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellektning boshqaruv samaradorligiga ta’siri nazariy jihatdan tahlil qilingan, asosiy yondashuvlari va modellari o’rganilgan. Shuningdek, SI texnologiyalarining boshqaruv tizimlariga integratsiyalashuvi bo’yicha ilmiy tadqiqotlar ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: boshqaruv samaradorligi, sun’iy intellekt, qaror qabul qilish, avtomatlashtirish, optimallashtirish, integratsiya, resurslarni boshqarish, prognozlash.

Kirish. Zamonaviy biznes va davlat boshqaruvi sharoitida samaradorlikni oshirish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Raqamli transformatsiya jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari strategik va operatsion qaror qabul qilish tizimlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. SI asosida boshqaruv jarayonlari optimallashtirilmoqda, inson omiliga bog’liq bo’lgan xatoliklar kamaytirilmoqda va resurslardan yanada samarali foydalanish imkoniyati yaratilmoqda.

Boshqaruv samaradorligini oshirishda SI texnologiyalarining roli so’nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, ilg’or kompaniyalar va davlat tashkilotlari SI asosida ishlaydigan tizimlarga investitsiya kiritib, natijadorlikni oshirishga erishmoqda. Biroq, SI texnologiyalarining boshqaruv tizimlariga integratsiyasi nafaqat afzalliklarga ega, balki muayyan xavflarga ham ega. SI texnologiyalarining zamonaviy boshqaruv tizimlariga ta’siri ortib borayotgani sababli, ularning imkoniyatlari, cheklovlari va samaradorlikka ta’sirini ilmiy jihatdan o’rganish muhimdir. Ushbu maqolaning maqsadi - boshqaruv samaradorligini oshirishda sun’iy intellektning nazariy asoslarini o’rganish va tahlil qilish. Mazkur maqolaning maqsadiga erishish uchun quyida bir nechta vazifalarni ko’rib chiqamiz:

1. Sun’iy intellektning boshqaruv jarayonlarida qo’llanilishining nazariy asoslarini yoritish.
2. Sun’iy intellektning boshqaruv samaradorligiga ta’sirini aniqlash.
3. SI texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va xavf-xatarlarini ko’rib chiqish.
4. Nazariy xulosalar asosida tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sun’iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy boshqaruv tizimlariga ta’siri ortib borayotganligi sababli, ularning imkoniyatlari, cheklovlari va samaradorlikka ta’sirini ilmiy jihatdan o’rganish muhim masala bo’lib bormoqda. Bu borada ko’plab xalqaro olimlar qator tadqiqotlar olib borganlar, shular jumlasidan, XVIII asrlarda G. Leybnis (1646-1716) va R. Dekart (1596-1650) bir-biridan xolis holda universal tilni ishlab chiqish g’oyasini olg’a surgan. Ushbu g’oyalar sun’iy intellektning nazariy asosi bo’lib qoldi. Eng birinchi neyrotarmoqlar 50-yillar oxirida amerikalik olimlar G. Rozenblat va P. Mak-kigyuk tomonidan ishlab chiqilgan [1].

Simon (1977) tomonidan ilgari surilgan qaror qabul qilish nazariyasi sun’iy intellekt tizimlari qanday qilib inson ongiga asoslangan tahliliy jarayonlarni amalga oshira olishini tushuntiradi. Unga ko’ra, boshqaruv jarayonlari uch bosqichdan iborat:

- 1) Ma’lumotlarni to’plash;
- 2) Tahlil qilish va variantlarni ishlab chiqish;
- 3) Optimal qaror qabul qilish.

Sun’iy intellekt ushbu uch bosqichning har birida sezilarli darajada yordam berishi mumkin [2].

Bryn Jolfsson va McAfee (2017) o’z tadqiqotlarida SI texnologiyalari boshqaruvda qanday inqilobiy o’zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko’rsatgan. Ular sun’iy intellekt (SI) asosida avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish jarayonlarining

raqobatbardoshlikka ta'sirini tahlil qilgan [3]. Davenport (2018) SI turli xil boshqaruv funksiyalarida – rejalashtirish, resurslarni taqsimlash, strategik rivojlanish va prognozlashda qanday qo'llanishi mumkinligini tasniflab bergan [4]. SI hozirgi kunda inqilobiy o'zgarishlar qilishda ya'ni, to'rtinchi sanoat inqilobining elementidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda analiz va sintez, kuzatish, tahlil qilish SWOT tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Inson ongiga o'xshash fikrlash qobiliyatiga ega sun'iy intellekt ongni yaratish borasidagi g'oya ancha yillar oldin paydo bo'lgan edi. R. Lulliy XIV asrlarda turli masalalarni mulohazalar asosida yechadigan mashinani yaratishga harakat qildi. Sun'iy intellekt tushunchasi (Artificial intelligence) 1956-yil Stanford universiteti (AQSH) seminarida birinchi marta e'lon qilindi. Ushbu seminar hisoblash ishlariga emas balki, mantiqiy ishlanmalarga yo'naltirilgan edi. Sun'iy intellekt yangi fan sifatida tan olingandan keyin u asosiy ikkita yo'nalishga ajratildi:

- Neyrokibernetika
- “Qora yashik” kibernetikasi

Faqat hozirga kelib ular bitta yagona yo'nalish sifatida birlashtirildi [5].

Zamonaviy boshqaruv tizimlarida sun'iy intellekt (SI) muhim rol o'ynaydi. SI texnologiyalari qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va strategik rejalashtirish imkonini beradi. Bu esa boshqaruv samaradorligini oshirishga yordam beradi. Quyida nazariy jihatdan SI ning boshqaruv tizimlariga ta'siri asosiy yondashuvlar va modellar asosida tahlil qilinadi.

Sun'iy intellekt (SI) ning boshqaruv samaradorligiga ta'siri turli jihatlar bo'yicha ko'rib chiqiladi. Barcha jihatlarni alohida ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular quyidagicha ijobiy o'zgarishlarga ega bo'lishlari mumkin:

- Qaror qabul qilish jarayonlari. SI katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish orqali optimal qarorlarni taklif etadi.
- Resurslarni boshqarish. Operatsion samaradorlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va ish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi.
- Innovatsiyalarni joriy qilish. Raqobatbardoshlikni oshirish va yangi biznes modellarini yaratishda yordam beradi.
- Risklarni boshqarish. Xavflarni oldindan aniqlash va minimallashtirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, SI asosida boshqaruv tizimlari nafaqat samaradorlikni oshirish, balki yangi ish uslublarini shakllantirish imkonini ham beradi. Quyida SI ta'sirining har bir jihatini batafsil tahlil qilamiz. An'anaviy boshqaruv tizimlarida rahbarlar qaror qabul qilish jarayonida o'z tajribasi va intuitive fikrlashga asoslanadi. Biroq, bu uslub subyektiv bo'lib, inson xatosiga yo'l qo'yilish ehtimoli yuqori. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar esa katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash orqali tez va aniq qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Misol tariqasida shuni aytish mumkinki, Google va Amazon kabi yirik kompaniyalar SI asosida mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilib, biznes strategiyalarini moslashtiradi. Yoki bank sektorlari jihatidan qaraydigan bo'lsak, Ular kredit berish jarayonida SI mijozlarining kredit tarixini tahlil qilib, qaror qabul qilishni avtomatlashtirgan.

1-jadval

Boshqaruv jarayonida SI dan foydalanish orqali erishiladigan natijalar

Omilar	An'anaviy boshqaruv	SI asosidagi boshqaruv
Qaror qabul qilish tezligi	Sezilarli vaqt talab etadi	Soniyalar Ichida natija beradi.
Ma'lumotlarni tahlil qilish	Cheklangan imkoniyatlar	Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlaydi.
Inson xatosi	Yuqori	Minimal darajada
Moslashuvchanlik	Past	Yuqori

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko‘rishimiz mumkinki, boshqaruv jarayoniga SI texnologiyalarini kiritish orqali ko‘plab samarali yechimlarga erishish va ish samaradorlik darajasini oshirish mumkin.

Sun‘iy intellekt boshqaruv tizimlariga integratsiyalashuvi bo‘yicha bir nechta yondashuvlar mavjud:

1) Ma‘lumotlarga asoslangan boshqaruv yondashuvi (Data-Driven Management). Ushbu yondashuv SI algoritmlaridan foydalangan holda qaror qabul qilishni optimallashtirishga asoslangan. Bu yondashuvning afzalliklari: tezkor va aniq qarorlar qabul qilish, obyektiv tahlil qilish. Kamchiliklari: katta hajmdagi sifatli ma‘lumotlarga ehtiyoj mavjud.

2) Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (Automated Decision Systems). Bu yondashuv sun‘iy intellekt (SI) yordamida takroriy va oddiy qarorlarni avtomatlashtirishga qaratilgan. Bu yondashuvning afzalliklari: samaradorlik oshishi, inson xatosi kamayishi. Kamchiliklari: noaniq yoki kompleks holatlar uchun moslashuvchanlik past bo‘lishi mumkin.

3) Prognozlash va tahliliy modellar (Predictive Analytics and AI Modeling). Ushbu yondashuv SI algoritmlaridan foydalanib, kelajakdagi tendensiyalar va xavflarni bashorat qilishga asoslangan. Bu yondashuvning afzalliklari: korxonalar strategik rejalashtirishni aniqroq amalga oshirishi mumkin. Kamchiliklari: bashoratlarning aniqligi ma‘lumotlarning sifati va miqdoriga bog‘liq.

4) SI va inson o‘rtasidagi hamkorlik yondashuvi (Human-AI collaboration). Bu yondashuv SI va insonning birgalikda ishlashiga asoslangan bo‘lib, inson SI tavsiyalariga asoslanib yakuniy qarorlarni qabul qiladi. Bu yondashuvning afzalliklari: inson fikrlashi va SI samaradorligi birlashtiriladi. Kamchiliklari: SI va inson hamkorligi uchun maxsus o‘quv va moslashuv jarayonlarini talab etadi.

Sun‘iy intellektga asoslangan boshqaruv modellarining bir qancha turlari mavjud. Ular:

- Ekspert tizimlar (Expert Systems). Bu model o‘z sohasida tajribaga ega bo‘lgan inson mutaxassislarning bilimlarini SI algoritmlariga tatbiq etadi.
- Neyron tarmoqlar (Neural Networks). Bu model inson miyasi ishlash tamoyillariga asoslanib, murakkab ma‘lumotlarni tahlil qilish va prognozlash imkonini beradi.
- Mustaqil o‘rganish tizimlari (Reinforcement Learning Systems). Bu model doimiy ravishda o‘z tajribasidan o‘rganib, eng yaxshi strategiyalarni ishlab chiqadi.

2-jadval

Boshqaruv jarayonida SI texnologiyalaridan foydalanishning SWOT tahlili

<p>Kuchli tomonlar (Strengths)</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Qaror qabul qilish tezligi va aniqligi; 2. Resurslarni samarali taqsimlash; 3. Avtomatlashtirilgan jarayonlar; 4. Prognozlash va xavfni minimallashtirish; 5. Innovatsion imkoniyatlar. 	<p>Zaif tomonlar (Weaknesses)</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Dastlabki investitsiya va xarajatlarning yuqorligi; 2. Texnologik bog‘liqlik; 3. Kiberxavfsizlik xavflari; 4. Inson omili va ish o‘riblarining qisqarishi; 5. SI tizimlarining shaffoflik muammosi.
<p>Imkoniyatlar (Opportunities)</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Bozorda raqobatbardoshlikni oshirish; 2. Xarajatlarni optimallashtirish; 3. Mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmat ko‘rsatish; 4. Raqamli transformatsiyani tezlashtirish; 5. SI va inson integratsiyasini rivojlantirish. 	<p>Tahdidlar (Threats)</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Huquqiy va axloqiy cheklolar; 2. Texnologik rivojlanishdagi nomutanosiblik; 3. Axborot manipulyatsiyasi va noto‘g‘ri qarorlar; 4. Katta ma‘lumotlar hajmini boshqarish muammolari; 5. SI algoritmlarining noto‘g‘ri ishlashi.

SWOT tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Si boshqaruv samaradorligini oshirishda kuchli imkoniyatlarga ega, lekin uning muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun xavf-xatarlarni

oldindan ko‘rib chiqish va ularni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish muhim. SI texnologiyalarini joriy qilish orqali ish samaradorligini oshirish, resurslarni optimallashtirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish mumkin. Shu bilan birga, huquqiy cheklovlar, kiberxavfsizlik xavflari va inson omiliga ta’sir kabi muammolarni hal etish lozim.

Xulosa va takliflar. Sun’iy intellekt (SI) boshqaruv jarayonlarida katta o‘zgarishlarga olib kelmoqda. SI boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Uning asosiy ta’siri qaror qabul qilish jarayonlarining optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalarni rivojlantirish va xavflarni minimallashtirish kabi jarayonlarda namoyon bo‘ladi. SI tizimlarining rivojlanishi strategik va operatsion qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish, tahliliy imkoniyatlarni kengaytirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Biroq, SI ning xavfsizlik, axloqiy me’yorlar va kadrlar moslashuvchanligi kabi masalalari ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan samarali foydalanish boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, SI texnologiyalaridan quyidagi strategiyalarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Birinchidan, SI bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni oshirish;

Ikkinchidan, Etik me’yorlarni hisobga olish;

Uchinchidan, Kiberxavfsizlikni mustahkamlash;

To‘rtinchidan, SI va insonning hamkorlik modelini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mo‘minov. B. B. Sun’iy intellekt. O‘quv qo‘llanma. T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. (2023).
2. Simon. H. A. The new science of management decision. Prentice-Hall. (1977).
3. Bryn Jolfsson. E, McAfee. A. Machine, Platform, Crowd: Harnessing our digital future. W.W. Norton and Company. (2017).
4. Davenport. T. H. The AI Advantage: How to put the artificial intelligence revolution to work. The Mit Press. (2018).
5. Xo‘jaqulov. T. A, Malikova. N. T. Sun’iy intellekt. O‘quv qo‘llanma. T.: Aloqachi. (2019).
6. Russell. S, Norvig. P. Artificial intelligence: A modern approach. Pearson. (2020).
7. Porter. M. Competitive advantage: Creative and Sustaining superior performance. The Free Press. (1985).
8. www.cyberleninka.ru
9. www.researchgate.net
10. www.academy.uz

<p>М.Нишонова</p> <p>Теоретические основы использования возможностей искусственного интеллекта для повышения эффективности управления</p> <p>Аннотация. В данной статье теоретически проанализировано влияние искусственного интеллекта на эффективность управления, изучены основные подходы и модели. Также рассмотрены научные исследования по интеграции технологий искусственного интеллекта в системы управления.</p> <p>Ключевые слова: эффективность управления, искусственный интеллект, принятие решений, автоматизация, оптимизация, интеграция, управление ресурсами, прогнозирование.</p>	<p>M.Nishonova</p> <p>Theoretical foundations for utilizing artificial intelligence capabilities to enhance management effectiveness</p> <p>Abstract. This article theoretically analyzes the impact of artificial intelligence on management efficiency, examines the main approaches and models, and reviews scientific research on the integration of artificial intelligence technologies into management systems.</p> <p>Keywords: management effectiveness, artificial intelligence, decision-making, automation, optimization, integration, resource management, forecasting.</p>
--	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.